

# Pedagogika konfliktologiya



Tayyorladi:  
Abidjanova V.T



# MAVZU: KONFLIKT SIGNALLARI HAQIDA MA'LUMOT

***1. Konflikt signallari haqida ma'lumot***

***2. Konfliktda g'oliblik strategiyasi***

***3. Konfliktdan qochish***



# Konflikt signallari

Konflikt signallari konfliktning to‘la namoyon bo‘lishidan oldin tomonlar o‘rtasida odatdagi to‘g‘ri munosabatlar o‘rtasida kelishmovchilik, inqiroz, o‘zaro tushunmaslik, hasadgo‘ylik (g‘ayirlik), ayrmakashlik vujudga kelayotganligini namoyon etadi. Konflikt signallariga bee’tiborlilik uning kelgusida rivojlanib ketishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, konflikt signallarini bilish va ularga e’tiborli munosabat talab qilinadi. Konflikt signallariga inqiroz, tomonlar orasidagi tanglik, tushunmovchilik, hasadgo‘ylik (g‘ayirlik), insidentlar, diskomfort kiradi.



Tomonlar orasidagi ma'lum ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy inqiroz darrov bilinadi. Agar biror kishi o'zining do'sti, hamkori yoki tanishi bilan o'z munosabatlarini birdaniga va sababsiz uzib qo'ysa, u bilan gaplashishidan o'zini saqlasa, hafa bo'lib yursa, uni turli qarama-qarshi fikrlar qiynasa, bu - konfliktdagi inqirozning vujudga kelganligiga ishoradir.



Konfliktning vujudga kelayotganligini ko'rsatuvchi yana bir signal. Tomonlar orasida kichkina nizoning kelib chiqishi ham, biz bilan emotсional to'qnashgan odam haqidagi bizning fikrimizga salbiy ta'sir ko'rsata boshlaydi. Bizga qarshi bo'lган odamning "yomon" ekanligiga darrov bir necha ko'rsatkichlar topila boshlaydi. Agar biz o'zimizni to'xtatmasak, bu "yomon"lar soat sayin ko'payib boradi. Uning barcha so'zlari, harakatlari va amallarini biz mikroskop ostida tahlil qila boshlaymiz, ko'p narsalarni "qora" bo'yoqda ko'rishga urinamiz. Ko'proq asl holatni emas, balki mana shu ongimizda vujudga kelgan hamda o'zimiz qo'rishga sayi-harakat qilgan odamni tahlil qilishga o'tamiz. Shu bois, bu odamga nisbatan bizning muomalamiz salbiy tomonga o'zgaradi. Orada emotсional tanglik vujudga keladi.



O'zgalar yutug'i va muvaffaqiyatlariga nisbatan shubhaga borish, qizg'anish holatlari kuzatiladi. Umuman olganda, kichik yoshdan boshlab bolalarda qizg'anish, hasad rivojlana boshlaydi. Bolaga ukasi yoki singlisiga unga nisbatan yaxshiroq o'yinchoq sovg'a qilishgani yoqmasligi, har bir o'yinda u yutib chiqishni xohlashi, har qanday yo'llar bilan birinchi bo'lishga intilishi, agar haqqoniy tarzda bu ishni amalga oshirib bo'lmasa, makkorlik (aldov) yo'li bilan bunga erishish mumkinligi kuzatiladi.

Hasadgo‘ylik. Yunon faylasufi Demokrit shunday deb ta’kidlaydi: “Hasad kishilar orasida janjalni boshlab beradi”. Hasadgo‘lik ham konflikt signallaridan biri bo‘lib, bu shunday tuyg‘uki, u kimdandir, nimadandir norozi bo‘lish, o‘zganing yutug‘ini ko‘rolmaslik, (xaqiqatdan shunday yoki tasavvurida bo‘lishi mumkin) o‘zida bo‘limgan holda o‘zgaga hasadgo‘ylik qilishida namoyon bo‘ladi.



*Insidentlar. Insidentlar, hayotda uchrab turadigan turli nizo va ziddiyatga bog‘liq bo‘lgan voqealar bo‘lib, osuda va tinchlik vaqtida siz ularga e’tiborsiz bo‘lasiz. Ammo ular ba’zan sizni ham konflikt tarkibiga tortib ketadi*



Diskomfort holati insonning ichki hissiyotlari, o‘ylari va tuyg‘ulari bilan bog‘liq bo‘lib, nimadir bo‘layotganligi anglanadi, ammo o‘sha “nimadir” aniq ta’rif etilmaydi, u anglashiladi, ammo uni so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydi. Diskomfort holati ko‘pincha insonni ba’zi noaniq va nizo holatlar, inqirozlardan saqlab qolish xususiyatiga ega. Shu bois, diskomfortga befarq qaramasdan, balki inson o‘zining ichki hissiyotlari nimalar demoqchiligini tahlil etishga, odam o‘ziga quloq solishga o‘tishi lozim. Konfliktning kelib chiqishidan oldin konfliktli vaziyat mavjud bo‘ladi. Konflikt vaziyatning oldini olmaslik incidentga olib keladi. Incidentning rivojlanishi esa konfliktning o‘zini vujudga keltiradi.



- Shunday qilib, konfliktlar yechimi mavjud. Konfliktning eng oddiy yechimi konfliktogenlarga e'tiborli munosabat, konflikt oldi vaziyatlaridan bo'lgan konflikt signallari, inqiroz, tomonlar orasidagi tang holat, tushunmovchilik, hasadgo'ylik, insidentlar, diskomfort kabilarni oldindan ko'ra bilish va konfliktning kelib chiqishini oldini olish, konflikt kelib chiqqanida esa, uning yechimiga qaratilgan sayiharakatlarni olib borishdan iboratdir.



# Test savollari

1. “G‘oliblik strategiyasi”ga oid fikrlar to‘g‘ri berilgan qatorni belgilang.

Hamsuhbatdoshni tinglamaslik, uning so‘zlari va fikrlariga bepisandlik, e’tiborsizlik;

Ochiq samimiy muloqotga tayyorlik ;

O‘tgan ishlarni yuziga solish;

Boshqalarning fikrlari, qarashlari va xulosalari biznikidan o‘zgacharoq bo‘lishi mumkinligini tushunish va qabul qilish;

Boshqalarning so‘zlarini eshitmaslik, ular so‘zini qo‘pol ravishda bo‘lish;

Tahdid qilish, qo‘rquitish, nafsoniyat va hayotga havf solish;

Boshqalarning manfaatlarini aniq belgilashga harakat qilish;

A. 1,3,4,6

B. 2,4,7

S. 2,5,6,7

D. 1,3,5,6

2. Quyidagi qaysi soxaning asosiy qoidalari hisoblanadi?

1. Konflikt yechimini qidirishga xohish va iroda; 2.Faqat xaqiqatni so‘zlash; 3.Gapni bo‘lmadan eshitish; 4.Birovning nuqtainazariga hurmat e’tibor, hech qachon uni yerga urmaslik; 5. Ikki tomonlama shartnomaning qarorlarini amalga oshirish uchun majburiyatni o‘z zimmasiga olish;

A. Shartnomaning asosiy qoidalari

B. Mediatsiya (ositachilikning) besh asosiy ustunliklari

S. Mediatsiya– ositachilikning asosiy qoidalari

D. Barcha javoblar to‘g‘ri

### 3. Davomini toping.

Tolerantlik tafakuriga ega bo‘lgan adam.....

A. o‘z hayoti va atrofidagi o‘ziga yaqin insonlar hayotini turli ziddiyatlardan muntazam muhofaza qilish imkoniyatiga ham ega bo‘ladi.

B. o‘z hayoti va atrofidagi o‘ziga yaqin insonlar hayotini turli ziddiyatlardan muntazam muhofaza qilish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi.

S. muammoni kelishuvga olib keladigan yo‘llarni o‘rganib, bahslashuvchi tomonlarga birgalikda ikkala tomonni ham qanoatlantiruvchi hamda ikkala tomon ham o‘zini g‘alabaga erishgan deb hisoblovchi yagona to‘g‘ri yo‘lni topishiga yordam beruvchi shaxs

D. To‘g‘ri javob berilmagan.

### 4. Pedagogik sinergetika nima?

A. O‘quvchilarning o‘zaro do‘stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko‘rsatishlari

B. Dunyoni yangicha izohlash

C. O‘quvchilarga xos bo‘lgan xislatlar

D. O‘quvchiga xos bo‘lgan o‘lchovlar

### 5. Egoizm so‘zining ma’nosи

A. Faqat o‘z manfatlarini ko‘rish qobiliyati

B. Hasadgo‘ylik

C. Manmanlik

D. Agressiv holat

6.Pedagogik hamkorlikning dastlabki tamoyili

- A. shaxsiy bilishga asoslangan onglilikdir
- B. to'ldiruvchilik tamoyili
- D. ta'lif-tarbiyaviy axborotlarning ochiqligi tamoyili
- C.Onglilik tamoyili

36. Nizoli vaziyatlarni boshqarishning Strategik usullar nechta

- A.3 ta
- B.4 ta
- D.5 ta
- C.6 ta

7. Muammoni anikdash quyidagilardan qaysi biriga to'g'ri keladi

- A. Muammoni avval o'zingiz aniq idrok etib olishga xarakat kiling. Muammoni anglash jarayonida sabrli va bosiq harakat olib boring. Konfliktli jarayondagi haqiqatni anglashga sayi-harakat kiling.
- B. ko'chada avariya bo'lib, ikki mashina bir- biriga urilsa, darrov xaydovchilar o'zaro kelishishga xarakat kilishadi.
- D. konflikt yechimi har ikkala tomondan faol tinglash, o'zgani eshitish, uning o'ylari, fikrlari, emotsiyalarini, shuningdek mushoxadalari, ya'ni argumentlari qandayligini bilishni talab etadi

8.Konfliktologiya -kanday fan? A. Konflikt ziddiyatli vaziyatni tugatadi, ya’ni vayron etadi, ammo shu bilan birga uning qanday hal etilishidan qat’iy nazar, yangi vaziyat, yangi holat yuzaga keladi.Muommoni kelib chiqishini, sabab va oqibatlarini o‘rganuvchi fan.

B. Pedagogik konfliktlar namoyon bo‘lish darajasiga qarab shahslararo va guruhli konfliktlarga bo‘linadi. Bu konfliktlarni batrарaf etishda samarali uslublarni ishlatgan holda muammo echimiga kelish mumkin. Jumladan, shahslararo konfliktli muhitda pedagogik choralar sifatida suhbat, tushuntirish, shahslararo munosabat madaniyati haqida tushuncha berish, psihologik ta’sir, egoizm va agressiv holatdan voz kechish hisobiga shakllanadigan muhit haqida tushuncha oboradigan fandir.

S. Ijtimoiy konfliktlarning sabablari, shakllari, rivojlanishi hamda ularni hal qilish va oldini olish haqidagi fandir.Yaniy Konfliktlarni kelib chiqishini, sabab va oqibatlarini o‘rganuvchi fan.

D. Konflikt ziddiyatli vaziyatni tugatadi, ya’ni vayron etadi, ammo shu bilan birga uning qanday hal etilishidan qat’iy nazar, yangi vaziyat, yangi holat yuzaga keladi fandir.

## 9. Melanxolik temperament xususiyatlarini toping?

A. kishilar xissiyoti o‘ta sekin, kuchsiz,qo‘zg‘aluvchanligi uzoq vaqt davom etmasligi bilan farq qiladi. Bunday kishilar odamlarning xursand qilishi, yoki xafa qilishi, g‘azablantirishi juda qiyin. Bu tipdagi shaxslar nixoyatda og‘ir-vazmin, yuvosh xarakatlari salmoqli bo‘ladi.

B. xissiyotining sekin, lekin kuchli qo‘zg‘aluvchanligi va barqaror bo‘lishi bilan farq qiladi tashqi irodasi juda zaif bo‘ladi. Ular sustkash,ular birdaniga ishga kirisha olmaydilar,lekin bir ishga kirishsa, oxirigacha yetkazmay qo‘ymaydilar. Bunday xissiyotli kishilar mo‘min-qobil, yuvosh bo‘ladi.

S. kishilar xissiyoti tez kuchli qo‘zg‘aluvchan lekin barqaror bo‘lgan bilan- farq qiladi. Ularning kayfiyati tez-tez o‘zgarib, turadi. Bular ildam chaqqon, serxarakat, jushqin bo‘ladilar. Tevarak-atrofdagi voqealardan tez ta’sirlanadilar.D. xissiyotining tez va kuchli quzg‘aluvchanligi, barqaror bo‘lishi, bilan farq qiladi. U temperamentli kishilarning xissiyotlari ularning imo-ishoralarida miminalarida xarakatlarda va nuqtalarida yaqqol ko‘rinib turadi. U qo‘zg‘aluvchan va tijanglikka moyil bo‘ladilar. Bunday temperamentli kishilar chaqqon, xarakatchan va serg‘ayrat bo‘ladilar

## 10. Diskomfort nima?

- A. Diskomfort xolati insonning ichki xissiyotlari, uylari va tuygulari bilan boglik bulib, nimadir bulayotganligi anglanadi, ammo usha “nimadir” anik ta’rif etilmaydi, u anglashiladi, ammo uni suz bilan ifodalab bulmaydi. Diskomfort xolati kupincha insonni ba’zi noanik va nizo xolat l ar, inkirozlardan saklab kolish xususiyatiga ega.
- B. Diskomfort xayotda uchrab turadigan turli nizo va ziddiyatga boglik bulgan vokealar boulib, osuda va tinchlik vaktida siz ularga e’tiborsiz bulasiz. Ammo ular ba’zan sizni xam konflikt tarkibiga tortib ketadi.
- S. Diskomfort Tomonlar orasidagi ma’lum ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy inkiroz darrov bilinadi. Agar biror kishi uzining dusti, xamkori yoki tanisshi bilan uz munosabatlarini birdaniga va sababsiz uzib kuysa – konfliktdagi inkirozning vujudga kelganligiga ishoradir.
- D. Diskomfort Konfliktning vujudga kelayotganligini kursatuvchi yana bir signal. Tomonlar orasida kichkina nizoning kelib chikishi xam, biz bilan emotsional tuknashgan odam xakidagi bizning fikrimizga salbiy ta’sir kursata boshlaydi.

## 11. Chidamlilik, bag‘rikenglik, sabr-toqatlilik, yon berish- ma’nolarini anglatuvchi sozni toping.

- A. Tafakkur
- B. Attestatsiya
- S. Tolerantlik
- D. Konflikt

## 12. .... – insonning turli iqtisodiy, ma’naviy, mafkuraviy, diniy munosabatlarga kirishishining qonun-qoidalarini belgilab beradi.

Tushib qolgan so‘zni toping.

- A. Tafakkur
- B. Attestatsiya
- S. Tolerantlik
- D. Mediatsiya

13. Bu forscha so‘z bo‘lib, ikki ildizdan tashkil topgan , birinchisi o‘z- o‘zim ma’nolarini bildiradi, ikkinchisi ko‘rish ma’nosini bildiradi.

- A. Ikkiyuzlamachilik
- B. Egoizm
- C. Xudbin
- D. Manmanlik

14..Majburlash; Kelishuv qanday usullarga kiradi

- A. Strategik
- B. tarkibiy - tashkiliy
- C. kompleks
- D. Interfaol

15. Shaxsiy makonning tarkibiy qismlarini toping?

- A. Shaxsiy zona,intim zona,ijtimoiy zona
- B. Jamoat zonasi,xalqaro zona
- C. Shaxsiy zona, intim zona, konflikt zona